yishini ta'minlovchi muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, tadqiqot fe'l asosidan yasalgan shaxs otlarining vaqt o'tishi bilan semantik kengayishga va ko'p ma'nolilikka moyilligini ko'rsatdi. Ijtimoiy taraqqiyot, kasb va faoliyat turlarining ko'payishi ushbu birliklarning yangi semantik qatlamlar bilan boyishiga olib keladi. Bu jarayon ingliz tilining dinamik rivojlanishini va uning ijtimoiy ehtiyojlarga moslashuvchanligini yaqqol namoyon etadi.

Tadqiqot natijalari ingliz tilida agentiv otlar yasalishining yuqori produktiv tizimga ega ekanini ko'rsatdi. -er suffiksining yetakchi mavqeyi uning soddaligi, semantik kengligi va keng moslashuvchanligi bilan bog'liq [1;118-b.].

-or, -ist, -ian suffikslari esa kontekstual va semantik ixtisoslashuv orqali o'zining mustahkam o'rniga ega bo'lib bormoqda. -ee suffiksi mavjud bo'lishi ingliz tilida agentlikning ikki tomonlama – "agent" va "patient" – semantik ziddiyat asosida rivojlanishini tasdiqlaydi [9;1682-b.). Gender suffikslarning pasayishi esa ingliz jamiyatidagi gender-neyrallik tendensiyalarining tilga aks etishi sifatida talqin qilinadi [3;165-b].

Xulosa qilib aytganda, fe'l asosidan shaxs otlari yasash ingliz tilida morfologik va semantik jihatdan yuqori darajada tizimlashgan va produktiv jarayon hisoblanadi. Ushbu hodisa tilning lug'aviy tarkibini boyitish, yangi nominativ birliklar yaratish va kommunikativ samaradorlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari ingliz tili leksikologiyasi, so'z yasalishi nazariyasi va qiyosiy tilshunoslik sohalarida olib boriladigan keyingi ilmiy izlanishlar uchun nazariy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, mazkur ish natijalari oliy ta'lim muassasalarida ingliz tili grammatikasi va leksikologiyasini o'qitishda amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Bauer L. (2003). English Word-Formation. Cambridge University Press, pp. 95–120.

(2). Aronoff M. (1976). Word Formation in Generative Grammar. MIT Press, pp. 110–150.

(3). Lakoff R. (1975). Language and Woman's Place. Harper & Row, pp. 40–60.

(4). Algeo J. (1992). Onomastics: The study of names. In the Cambridge History of the English Language (Vol. Cambridge University Press.

(5). Jackendoff R. (1990). Semantic Structures. MIT Press, pp. 45–60.

(6). Plag, I. (2003). Word-Formation in English. Cambridge University Press, pp. 60–90.

(7). Quirk R., Greenbaum S., Leech G., Svartvik J. (1985). A Comprehensive Grammar of the English Language. Longman, pp. 1530–1540.

(8). Bauer L. (1988). Introducing Linguistic Morphology. Edinburgh University Press, pp. 130–140.

(9). Huddleston R., Pullum G. (2002). The Cambridge Grammar of the English Language. Cambridge University Press, pp. 1650–1685.

Xolisov Azizbek Shokirjon o'g'li (Andijon Texnika instituti "Ijtimoiy fanlar" kafedrasi)

SHAHAR QURILISHI BO'YICHA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI VA REKLAMA MATNLARINING LINGVOPRAGMATIK TAHLILI

Annotatsiya. *Tadqiqotimizda o'zbek tilida shaharsozlik va qurilish terminlari muammolarini tadqiq qilish, takomillashtirish, leksikografik va sotsipragmatik muammolarni yechishda ilmiy ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot qurilish va shaharsozlikni ifodalovchi teminlarning pragmatik hamda lingvokulturologik talqini bo'yicha olib borilgan tahlillar ushbu soha vakillari uchun muhim ma'lumotlar berishi, kelgusi tadqiqotlar uchun ilmiy-nazariy manba sifatida xizmat qilishi bilan ahamiyatli.*

Kalit so'zlar: *lingvokulturologiya, ilmiy-nazariy asos, terminlar, pragmatik tahlil, rasmiy diskurs, tahlil.*

ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ДИСКУРСА ГРАДОСТРОИТЕЛЬСТВА

Аннотация. *Данное исследование имеет важное научное значение для изучения проблем градостроительной и строительной терминологии в узбекском языке, её совершенствования, а также решения лексикографических и социопрагматических задач. Представленный в работе прагматический и лингвокультурологический анализ терминов, описывающих сферу строительства и архитектуры, предоставляет ценные сведения для специалистов данной отрасли и служит теоретической базой для будущих изысканий в этом направлении.*

Ключевые слова: *лингвокультурология, научно-теоретическая база, термины, прагматический анализ, официальный дискурс, анализ.*

LINGUOCULTUROLOGICAL CHARACTERISTICS OF URBAN DEVELOPMENT DISCOURSE

Annotation. *This research holds significant scientific importance for the investigation and refinement of urban planning and construction terminology in the Uzbek language, addressing key lexicographical and sociopragmatic challenges. The pragmatic and linguoculturological analysis of terms representing construction and urban development provides essential insights for professionals in the field and serves as a theoretical and methodological framework for future academic inquiries in this domain.*

Keywords: *linguoculturology, theoretical framework, terms, pragmatic analysis, official discourse, analysis.*

Kirish. Shaharsozlik (shahar qurish) – me'morlikning yirik sohasi; shahar bunyod etish nazariyasi va amaliyoti aholi yashaydigan hududlar (turar jsoylar)ni loyiha asosida rejalashtirish. Shahar ijtimoiy-iqtisodiy, sanitariya-gigiyena, qurilishtexnika, badiiy-me'moriy masalalar majmuyini qamrab oladi. Shahar majmuyi me'morlik va qurilish bunyodkorligi, jamiyatning ijtimoiy tizimi va ishlab chiqarish kuchlarining taraqqiyot darajasi, madaniyati, tabiiy iqlim sharoitlari va milliy o'ziga xosligi bilan belgilanadi. Har qanday xalqning milliy o'zligining shakllanishi va mustahkamlanishida til, madaniyat, tarix va geografik muhit hal qiluvchi rol o'ynaydi. Xususan, milliy identifikatorlar- toponimika (geografik nomlar tizimi), tarixiy-madaniy kontekstlar, ramzlar, urf-odatlar – jamiyat xotirasini, milliy o'zlikni ifodalovchi diskurslarda muhim semantik yuk ko'taradi. Bugungi globallashuv sharoitida milliy identifikatorlarning saqlanishi va diskursdagi namoyon bo'lishi, ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu mavzuning tadqiq etilishi, bir tomondan, tilshunoslik va madaniyatshunoslik kesishmasida joylashgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, milliy g'oya va mafkura nuqtayi nazaridan ham dolzarbdir. Har qanday xalqning milliy o'zligining shakllanishi va mustahkamlanishida til, madaniyat, tarix va geografik muhit hal qiluvchi rol o'ynaydi. Xususan, milliy identifikatorlar – toponimika (geografik nomlar tizimi), tarixiy-madaniy kontekstlar, ramzlar, urf-odatlar jamiyat xotirasini, milliy o'zlikni ifodalovchi diskurslarda muhim semantik yuk ko'taradi. Bugungi globallashuv sharoitida milliy identifikatorlarning saqlanishi va diskursdagi namoyon bo'lishi, ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu mavzuning tadqiq etilishi, bir tomondan, tilshunoslik va madaniyatshunoslik kesishmasida joylashgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, milliy g'oya va mafkura nuqtayi nazaridan ham dolzarbdir. rasmiy va norasmiy diskurslar o'rtasidagi farqlar faqatgina til darajasida emas, balki ideologik va ijtimoiy tafovutlarning ifodasidir. Rasmiy diskursda shahar qurilishi – bu kelajak va taraqqiyot timsoli bo'lsa, norasmiy diskursda u mavjud muammolar va befarqlikning belgisi sifatida talqin etiladi. Korpusga tayanuvchi bunday yondashuv rasmiy til siyosati va jamoatchilik kayfiyatlari o'rtasidagi tafovutlarni empirik asosda aniqlash imkonini beradi.

Fikrimizcha, siyosiy diskurslarda milliy identifikatorlarning namoyon bo'lishi quyidagilarda anglashiniladi:

Siyosiy va rasmiy diskursda. Prezident nutqlari, davlat bayramlaridagi chiqishlar, konstitutsiyaviy hujjatlar milliy identifikatorlarni ongli tarzda yaratish va mustahkamlash vositasidir. Masalan, O'zbekiston Respublikasining Mustaqillik kuni bayramidagi nutqlarda "Temur tuzuklari", "Jadidlar merosi", "Istiqlol ramzlari" kabi iboralar doimiy ishlatiladi.

Badiiy adabiyot va publitsistikada. O'zbek adabiyotida toponimlar va tarixiy obrazlar xalq xotirasini uyg'otuvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Aytaylik, Abdulla Qodiriy asarlarida Toshkent, Marg'ilon, Farg'ona kabi toponimlar milliy identitet bilan bog'liq muhit yaratadi.

OAV va internet diskursida. Zamonaviy media, xususan, bloglar, ijtimoiy tarmoqlar orqali milliy identifikatorlar yangi kontekstlarda qayta talqin qilinmoqda. Bu holat ularning dinamik va o'zgaruvchan tabiatini ko'rsatadi.

Siyosiy va rasmiy diskursda milliy identifikatorlar. Siyosiy nutqlar va rasmiy matnlar – davlat mafkurasi, milliy g'oya va ideologik konsepsiyalar shakllanadigan asosiy maydonlardir. Bu sohadagi diskurslar ongli tarzda milliy o'zlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bu kabi iboralar orqali Amir Temur obrazining siyosiy diskursda ramzlashuvi, tarixiy shaxs sifatida emas, balki millatni birlashtiruvchi ideologik timsol sifatida shakllangani ko'rinadi.

Shuningdek, rasmiy hujjatlarda *«Ona zamin», «Vatan taraqqiyoti», «Milliy qadriyatlar», «Buyuk kelajak»* kabi frazeologik birliklar, metaforalar vositasida milliy identifikatorlar qatlam-qatlam semantik yuk orttiradi.

Badiiy adabiyot va publitsistikada milliy identifikatorlar. Badiiy adabiyotda milliy identifikatorlar obrazlar, toponimlar, tarixiy voqealar, arxaik leksika vositasida ifodalanadi. Bunday diskursda ularning estetik, madaniy va emotsional qirralari chuqur ochiladi. Masalan, Abdulla Qodiriyning *"O'tkan kunlar"*

romanida Marg'ilon, Toshkent, Xo'ja Ahror Vali qabri, madrasalar, mahalliy udumlar orqali XIX asr oxiri Turkistonining tarixiy-madaniy konteksti yaratiladi. Bu orqali toponimlar va tarixiy realiyalar o'quvchi xotirasida milliylik hissini uyg'otadi.

Publitsistik matnlarda esa ayniqsa istiqlol yillaridagi maqolalarda, milliy identifikatorlar *«o'z ildiziga qaytish», «milliy uyg'onish», «ajdodlar merosi»* kabi turg'un iboralar vositasida ifodalanadi. Bu ular qanday ideologik diskursda ishlatilayotganini ko'rsatadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Jahon tilshunoslari M.S.Bulatov, F.Buryakov, V.L.Voronina, V.L.Vyatkin, G.S.Durdiyeva, M.M.Dyakonov, B.N.Zasipkin boshqa olimlar tomonidan yaratilgan uslublar, shaharning ichki va tashqi bo'lish muammolari bilan bog'liq masalalar bo'yicha tadqiqod ishlarini olib borganlar.

Qurilish terminologiyasi rus tilshunosligida XX asrning 70-yillarda tadqiqotchilarning diqqat markaziga aylangan. S.V.Grinyov, A.S.Grinyov, R.Y.Kobrin, Y.I.Golovin kabi tadqiqotchilar qurilish va arxitektura terminologiyasining etimologik jihatlariga e'tiborini qaratgan. M.Bekmurodov, N.V.Vasilyevalar [1] qurilish terminlarining semantik-struktur jihatlarini tahlil qilgan.

Tahlil va natijalar. Milliy matn korpusi (gazeta maqolalari, blog postlar, siyosiy nutqlar va boshqa yozma materiallar) asosida shahar qurilishi bilan bog'liq tasavvurlar va stereotiplar tahlil qilinadi.

Korpus materiallari asosida shahar qurilishiga doir asosiy tasavvurlar.

1. Modernizatsiya va "zamonaviylik" stereotipi. Korpus tahlili shuni ko'rsatadiki, "zamonaviy shahar" tushunchasi bilan ko'pincha quyidagi iboralar bog'liq [2]:

1. *"Yevropacha arxitektura".*
2. *"Innovatsion infratuzilma".*
3. *"Smart city", "aqlli svetoforlar".*
4. *"Obod mahalla", "Yangi O'zbekiston".*

Bu iboralar orqali zamonaviy shahar g'oyasi modernizatsiyalashgan, texnologik, toza va qulay fazo sifatida talqin qilinadi. Tarixiylik va milliy identitet tasavvuri. Samarqand, Buxoro, Xiva kabi qadimiy shaharlarga nisbatan korpusda ko'proq "ajdodlar merosi", "madaniy obidalar", "tarixiy markaz" kabi iboralar ishlatiladi. Bu shaharlar diskursda milliy faxr, tarixiy xotira va turizm markazi sifatida ifodalanadi. Masalan, (O'zbekiston Milliy Korpusi, 2022):"Buxoro qadimdan ilm va ma'rifat markazi bo'lib kelgan. Uning har bir ko'chasi tarix bilan yo'g'rilgan."

"Ideal shahar" stereotipi. Ijtimoiy tarmoqlar va bloglardagi postlar orqali shakllanadigan tasavvurlarda "ideal shahar" quyidagilar bilan bog'lanadi:

1. *"Tinchlik va osoyishtalik".*
2. *"Obod ko'chalar, yashil hududlar".*
3. *"Yo'llar silliq, transport muammosiz".*
4. *"Tartibli qurilish, me'moriy uyg'unlik".*

Ushbu stereotipga mutanosib bo'lmagan joylar esa tanqid qilinadi: "Hamma joyni beton bosib ketgan, daraxtlar yo'q". "Yangi qurilishlar shahar ruhini yo'q qilyapti."

Xulosa. Toponimlar diskurslarda oddiy nom emas, balki ko'p qatlamli madaniy, tarixiy va semantik tizimning tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi. Ular orqali xalq o'z tarixini, madaniyatini, ideologiyasini va identitetini til orqali anglaydi. Toponimlar o'zbek tilida milliy identifikator sifatida mustahkam joy egallaydi, ular jamiyatda hozirgi siyosiy va madaniy jarayonlarga ham faol tarzda integratsiyalashmoqda. Korpus tahlili asosida aniqlanishicha, shaharlar haqidagi stereotiplar (masalan, "zamonaviy Toshkent", "ajdodlar shahri Samarqand") turli diskurslarda – siyosiy, ommaviy, adabiy va ijtimoiy tarmoqlarda shakllangan. "Ideal shahar" modeli ijtimoiy ongda ekologik tozalikka, tarixiylikka, texnologik rivojga va transport muammosizligiga asoslangan. Stereotipik iboralar – "obodlik", "betonlashganlik", "madaniyat markazi", "milliy ruh" – ijtimoiy fikr va siyosiy diskursda shaharlarni tasvirlashda asosiy semantik vosita sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Бекмуродов М. Лексико-семантический и структурный анализ строительной терминологии: На материале таджикского и английского языков. Дисс.на соискание степ.канд. фил.наук, 2020; Васильева Н.В. О координировании ономастической терминологии. Васильева Н.В. Вестник Нижегородского ун-та им.Н.И. Лобачевского, 2014, № 2(1), с. 373–377.

(2). Van Dijk T.A. (1998). *Ideology. A Multidisciplinary Approach.* London, "Sage", p. 14.

(3). Арутюнова Н.Д. Дискурс. Лингвистическая энциклопедия. М., Сове, энциклопедия, 1990, с. 136–137; Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. Изд. 4-е, стереотипное, М., "Ком.книга",2007, с. 576.

(4). Сафаров Ш.С. Лингвистика дискурса. Челябинск, 2018, 315 с.